O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA TA’LIM - TARBIYA MASALALARI

Shomurotova Sevinchoy San’at qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti
Boshlang ‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya*: Har bir insonning bahosi olgan tarbiyasi bilan baholanadi, uning savodi esa olgan ta’limi bilan. Ushbu maqolada maqollarning yoshlar ta’lim-tarbiyasi muhim ahamiyat egallashi haqida ma’lumot keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *maqol, xalq, ta’lim, tarbiya, usul, qadriyat, an’ana, meros, ma’naviyat.*

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi [1].

Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan [2]. Shuning uchun ham bugungi kundagi ahamiyati kattadir.

Maqollarni hayot qomusi, xalq og‘zaki ensiklopediyasi, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi. Shuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

Biz o‘zaro muloqot jarayonida o‘z fikrimizni dalillash uchun xalq maqollaridan ko‘p foydalanamiz. Bu narsa bizga nutqimizni go‘zal, jozibali va ishonchli bo‘lishida yordam beradi. Masalan farzand tarbiyasi haqida shunday bir fikr bor: “Sen farzandingni tarbiyalama, eng avvalo o‘zingni tarbiya qil. Farzandingga biror bir xato ishni qilmaslikni qancha uqtirsang ham o‘sha ishni o‘zing qilsang, farzanding sen kabi shu ishni aynan takrorlaydi. Farzand - oynadir”.

Xalqimiz boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o‘.rganish, ularda aks etgan xalq hayotini,

insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. Bizga ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi o’z ichiga dostonlarni, afsonalarni, maqollar va matallarni oladi. O‘zbek millatini ma’naviy qiyofasini, o’zligini ko‘rsatib beradigan xalq og‘zaki ijodining namunasi maqollar ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Maqollarni o‘rganish va o‘rgatish yoshlarimiz ma’naviyatida o’z millatiga nisbatan hurmatni, qalbida faxr tushunchasini beradi. Xalqimiz turmush tarzi ifodalangan manbalardan biri sifatida xalq og‘zaki ijodi, deb qarashimiz mumkin. Maqollar esa xalq og‘zaki ijodining yirik namunasidir. Maqollarni o‘rganishimiz o’z tilimizga nisbatan hurmatni, uni yoshlarimiz ongiga singdirib ularda qadriyatlarimizga nisbatan faxr tuyg‘usini rivojlantirishga katta yordam beradi. Shu bilan birga maqollarimizni chet el maqollari bilan taqqoslash ularni o‘rganish ham boshqa millatlarga nisbatan hurmatni va ularni dunyoqarashidan boxabar bo‘lishimizga katta turtki bo‘ladi.

Ma’lumki, tarbiya ko‘proq ta’lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg‘usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bu orqali o‘quvchilar ma’naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g‘urur, matonat, mehr-oqibat, do‘stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo‘ladi. Albatta, bu jarayonda xalq maqollarining o‘rni beqiyosdir. Jumladan, maqol janridagi asarlar ham boladagi qo‘pollik, qo‘rslik, yolg‘onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi [1].

Katta yoshdagi odamlarni o‘ziga yarashadigan xulq-u odobga o‘rgatadigan tanbehlar va nihoyat, tarbiya natijalarini aks ettiruvchi, ta’lim maslahatlaridan iborat o‘ziga xos nasihatlar. Bu ayniqsa, ta’lim tajribasini umumlashtirishning o‘ziga xos shakli sanaladi. Maqollarda bolalarning tug‘ilishiga, ularning xalq hayotidagi o‘rniga, tarbiya maqsadlari, vositalari va uslublariga, rag‘batlantirish va jazolashga, o‘qish mazmuniga, mehnat va ahloq tarbiyasiga, bolalarning ota-onalar fe’l atvoridagi fazilatlarni meros qilib olishiga, atrof muhit va jamoatchilik fikrlarining ta’siriga daxldor ta’lim g‘oyalari o‘z aksini topgan.

Xalq va avlodlarning ta’lim mubohasasida katta-yu kichik barcha xalqlar beistisno ishtirok etadi. Bolaning bu dunyoga kelishi uchun bayram, farzandsiz ikki jonning yashashi dushvor. O‘zbek maqollarida bolalar haqidagi yaxshi gaplar ko‘p takrorlanadi: «O‘g‘il bilan qiz bir juft qizil gul», «O‘g‘il bilan qiz uyning mehmoni», «O‘g‘il bilan qiz-tun bilan kun», «O‘qil oftob, qiz mohtob», «Bolalar osmondagi yulduzlar, qorong‘u tunni yorug‘ kunduz qiladi», «O‘g‘li yo‘qning o‘rni yo‘q, qizi yo‘qning qadri yo‘q».

Bolani har qaysi ayol ham dunyoga keltira oladi, lekin tarbiya har kimning qo‘lidan kelavermaydi.

Farzandni dunyoga keltirib, tarbiya qilolmaydi ham ota, ham onaga tegishli bunday tanbehlar har bir xalqda uchraydi. Xalq dunyoqarashini o‘rganish uchun ta’lim o‘gitlarining o‘zi ayniqsa qimmatlidir. Ular ta’lim ashyolari, bolalar va tarbiya haqidagi bilimlar bilan birgalikda xalq ta’limi tafakkurining negizini tashkil etadi. Bu xalqning o‘ziga xos axloqiy ma’rifiy qoidasi.

Bu qoida muhim jihatlarda xalqning o‘zi tomonidan obdon o‘ylab ko‘rilgan: «Bolalarni kaltak bilan emas, yaxshi so‘zlar bilan o‘qitadi», «Kaltakdan badan qabaradi, haqoratdan yurak», «Bolalarni do‘q va kaltak bilan emas, uyaltirish bilan jazolaydi».

O‘zingnikini olganingda o‘zgalarni ham unutma, o‘zingniki istasang-istamasang do‘st bo‘lib qolaveradi», «Olim ko‘rib turadi, avom izidan boradi».

Xulosa qilib aytganda, maqollarga qarab shaxsning ijobiy va salbiy xislatlari odamlar xulq-atvorini bir zaylda yaxshilashni ko‘zda tutuvchi tarbiya maqsadi sifatida gavdalanadi. Buning ajoyib tomoni shundaki, barcha xalqlar inson kamolotining cheksizligini tan oladilar. Kishi har qancha komil bo‘lmasin, u kamolot sari yana bir qadam tashlaydi. Bu qadam nafaqat odamni, balki bashariyatni taraqqiyot sari boshlaydi. Sharhlovchilar oila va nasablarga quyidagicha mantiqiy baho beradilar: istiqbolsiz nasab, ertasi yo‘q oila, shox-butoqsiz daraxt; ildizsiz daraxt quriydi, yolg‘iz butoq sinishi turgan gap, hassasiz cho‘pon-shoxsiz daraxt.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://uz.m.wikiquote.org/wiki/O%CA%BBzbek_maqollari
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya
3. https://www.samdu.uz/uz/news/32768
4. T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari — T.: «Sharq», 2016. — 512 b.